“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=341

2025-yil
5-son
dekabr
ISSN 3093-8546



O‘zbekiston davlatchligining konstitutsiyaviy asosi

Nigora Yusupova,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Ijtimoiy fanlar va huquq kafedrasi prof., yu.f.d
e-mail: N.yusupova@mail.ru

Аннотация. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasidagi "O‘zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" degan har bir tushunchaning mazmun-mohiyati ilmiy metodlarni hisobga olgan holda tahlil qilingan.V dannoy state proanalizirovan i aktualniy vopros vospitaniya i obrazovaniya molodeji, podnyatiy v vistuplenii Prezidenta Respubliki Uzbekistan Shavkata Mirziyoyeva na vstreche, posvyashennoy itogam referenduma, sostoyavshegosya 8 maya 2023 goda.

Калит сўзлар. davlat, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy, ta’lim, ma’rifat, radikalizm, jaholat, milliy g‘oya, diniy, bag‘rikenglik, ma’naviyat, huquqiy ong

Аннотация. В данной стате с учетом научних методов проанализировани содержание и сущност каждого понятия стати 1 Конститутсии Республики Узбекистан "Узбекистан - суверенное, демократическое, правовое, сотсиалное и светское государство, имеюшеэ республиканскую форму управления."В данной стате также проанализирован актуалний вопрос, связанний с воспитанием и обучением молодежи, поднятий в виступлении Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на встрече, посвяшенной итогам референдума 8 мая 2023 года.

Ключевые слова. государство, демократический, правовой, социальный, светскость, обучение, просвещение, радикализм, невежество, религиозная толерантность, духовность, национальная идея, правосознание

Annotation. In this article, the content and essence of each concept of Article 1 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan "Uzbekistan - a sovereign, democratic, legal, social and secular state with a republican form of government" are analyzed, taking into account scientific methods.This article also analyzes the current issue related to the upbringing and education of youth, raised by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev in his speech at the meeting dedicated to the results of the

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

referendum held on May 8, 2023.

Keywords. state, democratic, legal, social, secularism, education, enlightenment, radicalism, ignorance, national idea, religious, tolerance, spirituality, national idea, legal consciousness

Taraqqiyotning dunyoviylik yoʻli – mustaqil Oʻzbekistonning ijtimoiy-siyosiy va konstitusiyaviy maslagidir. Ushbu maslak Oʻzbekiston Respublikasining yangi qabul qilingan Konstitusiyasi 1-moddasida quyidagicha oʻz aksini topdi: “Oʻzbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega boʻlgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” [9:1].

Konstitusiyaga yangi kiritilgan “huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” tushunchalarining mazmun mohiyatini xalqimiz ayniqsa, ertangi kunimiz egalari boʻlmish yoshlarimiz teran anglamoqlari lozim. Ushbu maqolada mazkur tushunchalar mohiyatini imkon qadar yoritamiz.

Avvalo, “Ijtimoiy davlat” deganda nimani tushunamiz? Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2021 yil 7 dekabrda Oʻzbekiston Konstitusiyasi qabul qilinganligining 29 yilligiga bagʻishlangan tabrigida: “Ayni vaqtda biz Konstitusiyamiz normalarini hayotga toʻla tatbiq etish, jamiyatda qonun va adolat ustuvorligini, inson huquq va manfaatlari, uning qadr-qimmatini yanada samarali ta'minlash borasida hali koʻp ish qilishimiz kerakligini yaxshi tasavvur qilamiz” [1:1], deb davlatimiz oldida turgan muhim vazifalar haqida toʻxtalib oʻtgan.

Mazkur tabrikda “...hozirgi kunda Oʻzbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli “Yangi Oʻzbekiston – ijtimoiy davlat”, degan tamoyilni konstitusiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqti-soati etdi”...[1:1], deb bayon etildi.

Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir.

Ijtimoiy davlat funksiyalari – bu ijtimoiy himoyalanmagan yoki ehtiyojmand qatlamni qoʻllab-quvvatlash; ishsizlikka qarshi kurashish; tadbirkorlarga yordam; aholining bandligini va daromadlarini doimiy oʻsishini ta'minlash; ta'lim, sogʻliqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va ma'naviy-madaniy rivojlanishning qulayligini ta'minlash; jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitini yaratish.

Ijtimoiy davlat belgilari: – bu sifatli ta'lim, malakali va maqbul tibbiy xizmat; ijtimoiy yoʻnaltirilgan iqtisodiyot; fuqarolik jamiyatini rivojlanganligi; ijtimoiy davlat dasturlarini ishlab chiqishi va amalga oshirish; davlatning har kimga munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta'minot va shaxsning oʻzini oʻzi anglashi uchun teng boshlangʻich sharoitlarini ta'minlash maqsadlarini tasdiqlash; fuqarolar oldidagi ijtimoiy mas'uliyat; ijtimoiy sohaga toʻlovlarning yuqori miqdori;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ijtimoiy hayotni yaxshi rivojlangan tartibga solish tizimi; byudjetdan ijtimoiy to‘lovlarining mavjudligi; ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot va bandlik davlat tizimlarining mavjudligi; jamiyatning barcha muhtoj a'zolarini istisnosiz ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi; fuqarolarning farovonlik darajasi uchun davlat tomonidan javobgarlikni qabul qilish.

O‘zbekiston davlatining siyosiy-huquqiy maqomiga kiritilgan “huquqiy davlat” tushunchasi esa – bu demokratik tamoyillar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo‘lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir. Qolaversa, qonunlarning butun davlat hududidagi ustuvorligi, xokimiyatlar vakolatining bo‘linishi, shaxs va davlatning o‘zaro ma'sulligi, inson huquqlari va erkinliklarining himoyalanishidir.

Dunyoviy davlat – davlat hokimiyati va boshqaruvdan din ajratilgan, boshqaruv diniy qoidalar bilan emas, balki qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qilishda diniy asoslarga tayanilmaydigan davlatdir. Shuningdek, hech qanday din va mafkura davlatning majburlov kuchi bilan o‘rnatilmasligini, ularning davlatdan ayri ekanligini tavsiflaydi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, dunyoviy davlatda din davlat hamda siyosatdan ajratilsa-da, jamiyatdan ajratilmaydi.

Bugungi zamonaviy o‘zbek jamiyatida Konstitusiyaga kiritilgan dunyoviylik tushunchasi bir-biridan ajralmas uch qadriyatga asoslanadi. Bular:

Vijdon erkinligi;

Barcha din va diniy tashkilotlarning qonun oldida tengligi;

Dinning siyosatdan ajratilganligi.

Har bir dunyoviy davlatda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham dinga bo‘lgan munosabat mamlakatning asosiy qonuni hamda muayyan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va qonunlar orqali tartibga solinadi.

Shu o‘rinda eslab o‘tish lozimki, “dunyoviylik va diniylik o‘rtasidagi nisbat, uning shakliy o‘zgarishlari Markaziy Osiyoda doimo muhim o‘rin egallab kelgan. Hududdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar dunyoviy-ma'rifiylik va diniylik haqidagi tasavvurlarning shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatgan.

Dunyoviylik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlari hamisha hamohanglik kasb etib kelgan. Ya'ni dunyoviylik qotib qolgan dogma emas, aksincha, u muntazam ravishda takomillashib boruvchi hodisadir. Zamonaviy ilmiy tilda aytganda, dunyoviylik modernizasiya deb nomlanuvchi jarayonning harakatlantiruvchi kuchdir. U jamiyat ilmiy salohiyatining uzluksiz oshib borishi, texnologik taraqqiyotning davomiyligi, iqtisodiy hayotning rasionallashuvi, madaniyatning yuksalib borishi kabi muhim jarayonlar bilan uyg‘un ravishda takomillashib boradi” [5:7].

Yangi Konstitusiyada o‘z aksini topgan “Dunyoviy davlat” tushunchasini tahlil qilar ekanmiz, taraqqiyotining tamal toshi bo‘lib xizmat qilayotgan dunyoviylik g‘oyasi aslo xudosizlikka asoslanmagani, yaqin o‘tmishimizdagi o‘xshash daxriy jamiyatni

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

anglatmasligini sog‘lom mushohada qilmoq lozim. Buni tushunish uchun esa Din nima? Davlat nima? Ularning vazifalari nimalardan iborat? Dunyoviy davlatning dinga bo‘lgan munosabati nimalar bilan belgilanadi? Unda diniy e'tiqodga qanday o‘rin ajratilgan? Qolaversa, din va umum e'tirof etilgan tamoyillarga asoslangan demokratiya tushunchasi o‘rtasidagi aloqalar qanday bo‘lishi kerak? degan masalalarni tushunib olish kerak bo‘ladi.

Ma'lumki, davlat o‘z hududiga, suverenitetiga, hokimiyat va boshqaruv organlari, maxsus majburlov apparatiga ega, fuqarolardan soliq undiradigan, umummajburiy huquq normalarini o‘rnatadigan, zarur bo‘lganda ularning ijrosini kuch ishlatish bilan ta'minlaydigan siyosiy tashkilotdir [8:76].

Davlat – mulkchilik shakllarini belgilash, iqtisodiyotni rivojlantirish, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish va amalga oshirish, huquqni muhofaza qilish va huquqbuzarlikka qarshi kurashish, ekologik tahdidlarning oldini olish, mamlakatni ichki va tashqi kuchlar tajovuzidan himoya qilish, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatish va amalga oshirishda hal qiluvchi rolni bajaradi.

Davlat o‘zining vazifa va funksiyalarini Konstitusiyaga asoslangan holda: parlament, hukumat, vazirlar, sud, advokatura, maxsus xizmat organlari, qurolli kuchlari, mahalliy davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, davlat tashkilotlari va muassasalari orqali amalga oshiradi. Bu haqda yangi Konstitusiyaning 15-moddasida: quyidagi tamoyil mustahkamlab qo‘yildi: “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo‘llaniladi. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitusiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar” [9:1].

Bu jarayonda muhim bir masala – Davlat xususan, uning alohida organlari o‘z vazifa va funksiyalarini bajarish asnosida dindorlar va diniy tashkilotlar bilan xilma-xil munosabatlarga kirishishadi. Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili uning asosini tashkil etishini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitusiyamizning 75-moddasida: “Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi. Davlat qonunda belgilangan tartibda faoliyat

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

koʻrsatayotgan diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligini kafolatlaydi”, degan qoida mustahkamlandi [9:1].

Ushbu moddani tahlil qilar ekanmiz, diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilgani dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ham ta'kidlash zarurdir. Bu fuqarolik jamiyatida din oʻz mavqeiga ega boʻlishini anglatadi. Bu ham Konstitusiyamizning amaldagi ijrosidan kelib chiqadigan mantiqiy xulosalardan biridir.

Aytish joizki, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, bunyodkor milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va xalqimizning haqiqiy ma'naviy surati va siyratini belgilovchi fazilatlarni oʻzida mujassamlashtirgan mehr-oqibat, hamjihatlik, oʻzaro yordam, keksalarga hurmat, sharqona odob-axloq, sharmu hayo kabi eng oliy insoniy tuygʻularning tub mohiyatini anglash va koʻz qorachigʻidek e'zozlashda aynan diniy tashkilotlar va din arboblarining roli va oʻrni beqiyosligini bugun hech kim inkor etmaydi. Aksincha, bunday bunyodkor faoliyat qizgʻin qoʻllab-quvvatlanmoqda. Buning sababi esa, Konstitusiyamizda ana shunday faoliyat uchun mustahkam huquqiy zamin yaratib berilganidadir.

Din va dunyoviy davlat munosabatini belgilab beruvchi boshqa bir tamoyilning mazmuni din sohasida kechayotgan oʻzgarishlarni xolis, ilmiy oʻrganish va shundan kelib chiqib, ijobiy jarayonlar rivojiga kengroq imkoniyat yaratish, salbiy holatlarning oldini olishda namoyon boʻladi.

Davlatning dinga boʻlgan munosabatini ifodalovchi yana bir muhim tamoyil, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

Bugun dunyoviy taraqqiyot yoʻlidan borayotgan mamlakatlardagi dinga boʻlgan munosabat demokratiya mezonlariga asoslanganini chuqur idrok etmogʻimiz lozim. Bizning jamiyatimiz taraqqiyoti negizi qilib belgilangan dunyoviylik, hurfikrlik tamoyili ham xuddi ana shu tajribalarga asoslangan. Shunga koʻra, Yangi Konstitusiyamizning 33-moddasida: “Har kim fikrlash, soʻz va e'tiqod erkinligi huquqiga ega” ekanligi, 35-moddada esa “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yoʻl qoʻyilmaydi” tamoyili mustahkamlandi [9:1].

Konstitusiyamizda insonning tabiiy huquqi boʻlmish vijdon, e'tiqod erkinligi kafolatlanishi barobarida, fuqarolarning tegishli ravishdagi majburiyatlari ham albatta qat'iy belgilab berildi. 19-moddaga koʻra, “Oʻzbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitusiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tugʻilganidan boshlab tegishli boʻladi. Oʻzbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega boʻlib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i

nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos boʻlishi shart” [9:1], 71-moddada esa “Konstitusiyaviy tuzumni zoʻrlik bilan oʻzgartirishni maqsad qilib qoʻyuvchi, Oʻzbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targʻib qiluvchi, fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sogʻligʻiga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarning, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, shuningdek milliy va diniy belgilariga koʻra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va birlashmalar tashkil etish taqiqlanadi”, degan muhim qoida oʻz ifodasini topdi [9:1].

Konstitusiyaviy qoidalarni tahlil qilar ekanmiz ta'kidlash lozimki, Oʻzbekistonda dunyoviy davlat qurish yoʻli tanlanishining oʻziga xos sabablari mavjud. Buning uchun dunyoviy davlatga xos jihatlarni, uning afzalliklarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoviy davlatning muhim jihatlari quyidagi yoʻnalishlarda oʻz ifodasini topgan:

· inson huquqlari va davlat suvereniteti gʻoyalariga sodiqlik;

· demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat;

· xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olish;

· respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlash;

· insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo etish;

· Oʻzbek davlatchiligining tarixiy tajribasiga tayanish;

· diniy tashkilotlar va birlashmalarni davlatdan ajratilganligiga hamda qonun oldida tengligi. Davlatning diniy birlashmalar faoliyatiga aralashmasligi;

· fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash;

· hozirgi va kelajak avlodlar oldida yuksak mas'uliyatni anglash;

· Oʻzbekistonda davlat va jamiyat qurilishining huquqiy asoslari uning Konstitusiyasida belgilab qoʻyilganligini va unga tayanib ish olib borish.

Demak, mamlakatimizda davlatchilik asoslari dunyoviy, demokratik boshqaruv tuzumiga asoslanadi. Dunyoviy demokratik boshqaruvga xos boʻlgan jihatlar quyidagilarda oʻzining aniq ifodasini topadi:

demokratik normalarga tayanadigan huquqiy davlat;

demokratiyaga zid boʻlmagan holda tarixiy an'analar va jamiyat hayotining muhim sohalaridagi milliy xususiyatlarning saqlanishi;

barcha fuqarolarning tengligiga asoslangan milliy siyosat olib borish;

uning siyosiy mavqei iqtisodiy, ma'naviy va harbiy texnik imkoniyatiga, salohiyatiga mos boʻlishi;

fuqarolar ijtimoiy ongida demokratik tafakkurga amal qilinishi;

mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borish;

oʻz taraqqiyot yoʻlini mustaqil tanlash va amalga oshirish;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

oʻz qobigʻida yashash mumkin emasligi qoidasiga tayanish, ochiq demokratik davlat siyosatini yuritish.

Yuqorida ta'kidlanganlar barobarida, mamlakatimizda ming yillar davomida asriy qadriyat sifatida xalqimiz qon-qoniga singib ketgan davlatchilik an'analari shakllanganligini ham doim e'tiborda tutish lozim. Konstitusiyamizga koʻra, Oʻzbekiston xalqining davlat boshqaruv sohasidagi urf-odat va an'analariga sodiq holda demokratik boshqaruvni amalga oshiradi. Bu milliy davlatchilikni demokratik jamiyatga zid emasligini koʻrsatadi. Bundan tashqari Oʻzbekiston demokratiyani biron andozadan shundayligicha koʻchirib olmagan, milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang tarzda rivojlantirgan.

Dunyoviy davlat qurishni koʻzlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilab beruvchi zikr etilgan konstitusion mezonlardan quyidagi ikkita asosiy xulosa kelib chiqadi:

Birinchidan Oʻzbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy va adolatli dunyoviy davlat qurish konsepsiyasida din – madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi barcha qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida soʻzsiz tan olinadi. Mamlakatda turli din vakillarining bagʻrikenglik va tinch-totuvlikda yashashlari ta'minlanadi. Tabiiyki, jamiyatda turli tuman din va madaniyatlar vakillari mavjud boʻlgan holda, davlat boshqaruvi va siyosati albatta bir mafkuraga yoki diniy qarashga asoslana olmaydi. Bunday sharoitda Oʻzbekistonda eng adolatli va toʻgʻri yoʻl dunyoviy davlatchilik boʻlib, ushbu prinsip barcha dinlar hamda turli qarashlarni teng hurmat qilish, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, sof diniy ehtiyojlarni qondirishdan tashqarida boʻlgan har qanday gʻarazga erishish yoʻlida diniy omildan foydalanishga intilish qat'iyan man etiladi. Boshqacha aytganda, dinni siyosiylashtirishga yoʻl qoʻyilmaydi, biroq ayni paytda diniy tashkilotlar va konfessiyalarning rivojlanishiga koʻmak koʻrsatiladi, ularning ichki ishlariga aralashilmaydi, dindorlarga diniy ehtiyojlarini qondirishlariga toʻsqinlik qilinmaydi.

Bu borada davlat rahbari 2023 yil 8 may kuni referendum yakunlariga bagʻishlangan uchrashuvda quyidagilarni ta'kidladi: “Oʻzbekiston — dunyoviy davlat va bundan keyin ham shunday boʻlib qoladi. Xalqimizning referendum orqali bildirgan xohish-irodasi, qat'iy tanlovi ham shu!”. Shuningdek, mazkur tadbirda prezidentimiz: “Oʻzbekistonda har qanday radikallashuvga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga hech qachon yoʻl qoʻyilmasligiga urgʻu berib, bundan buyon ham millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar har bir fuqaroning vijdon erkinligi ta'minlanishini bildirdi. Barcha diniy konfessiyalar erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishi, mamlakatda millatlar va konfessiyalar oʻrtasida totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash siyosati izchil davom ettirilishini” ham qayd etdi [2:2].

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Demak, dunyoviy tamoyilga ega davlatimiz dinning barkamol insonni voyaga etkazishdek nozik va ma'suliyatli ishdagi cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishga intiladi. Ayni paytda diniy da'volar bilan niqoblangan, aslida xolis diniy e'tiqodga mutlaqo aloqasi yoʻq, jamiyatdagi hamjihatlik, millatlararo va dinlararo totuvlik, siyosiy-ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi har qanday urinishlarga dunyoviy davlat tuzumining mutlaqo murosasiz ekanini ham aniq-tiniq koʻrsatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

Mirziyoev Sh.M. 2021 yil 7 dekabrda Oʻzbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 29 yilligiga bagʻishlangan tabrigi. «Yetmish marta oʻylab, qaror qilish kerak» - Shavkat Mirziyoyev asosiy qomusni yangilash toʻgʻrisida (kun.uz)

Mirziyoev Sh.M. Oʻzbekiston – dunyoviy davlat va bundan keyin ham shunday boʻlib qoladi.

Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. – T.: “Oʻzbekiston”, 2017. – B. 23.

Mirziyoev Sh.M. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi // 20.12.2022. .

Mirziyoev Sh.M. Oʻzbekiston yoshlariga bayram tabrigi. Oʻzbekiston yoshlariga bayram tabrigi (president.uz)

Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “Oʻzbekiston”, 2017.

Meliqoʻziev J. “Dunyoviy-ma'rifiy davlat” tushunchasi. “Dunyoviylik – dahriylik emas” tamoyilining mazmun-mohiyati. “Dunyoviy-ma'rifiy davlat” tushunchasi. “Dunyoviylik – dahriylik emas” tamoyilining mazmun-mohiyati – oliymahad.uz

Odilqoriev T. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent. Toshkent Davlat yuridik instituti, 2000. – B. 314.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son) .

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son «2022—2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni // Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2022 y. – № 4. –69-m.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumandagi nutqi // Xalq soʻzi, № 119. 2017 yil, 16 iyun.

Yusupova N. Yoshlar oʻrtasida radikalizmni oldini olishda jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashning ahamiyati. // Imom Buxoriy saboqlari. - 2022. - №4. - B. 132-133.